



JINOYAT PROTSESSIDA INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINI HIMOYA QILISH INSTITUTINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

Toshkent davlat transport universiteti

Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs talabasi

Ozoda Mo'minjonova

Ilmiy rahbar: Jinoyat huquqi,

kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish mudiri

y.f.d., prof. A.A.Otajonov

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada jinoyat protsessida inson huquq va erkinliklarini himoya qilish institutining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil etiladi. Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash demokratik huquqiy davlatning asosiy mezonlari sifatida e'tirof etilib, ularning jinoyat protsessidagi kafolatlari hamda himoya mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Maqolada mazkur institutning tarixiy ildizlari, mustaqillik davrida boshlangan islohotlar, sud-huquq tizimidagi yangilanishlar hamda xalqaro huquq normalarining milliy qonunchilikka integratsiyalash jarayoni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, jinoyat protsessida shaxsning daxlsizligi, adolatli sudlov huquqi va advokat himoyasi kabi tamoyillarning amaliy tatbiqi ham tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida inson huquqlarini himoya qilish institutining yanada takomillashtirilishiga doir taklif va xulosalar ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar: *Jinoyat protsessi, inson huquqlari, erkinlik, himoya instituti, adolatli sudlov, huquqiy davlat, advokat, sud islohoti.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье анализируются этапы формирования и развития института защиты прав и свобод человека в уголовном процессе. Подчеркивается, что обеспечение прав и свобод личности является основным критерием демократического правового государства, а также рассматриваются гарантии и механизмы их защиты в уголовном*



судопроизводстве с научно-теоретической точки зрения. В статье исследуются исторические корни данного института, реформы, начатые в период независимости, обновления в судебной-правовой системе, а также процесс интеграции норм международного права в национальное законодательство. Кроме того, анализируется практическое применение принципов неприкосновенности личности, права на справедливое судебное разбирательство и адвокатской защиты. На основе результатов исследования выдвинуты предложения и выводы, направленные на дальнейшее совершенствование института защиты прав человека.

Ключевые слова: уголовный процесс, права человека, свобода, институт защиты, справедливое правосудие, правовое государство, адвокат, судебная реформа.

ABSTRACT: This article analyzes the stages of formation and development of the institution for the protection of human rights and freedoms in criminal proceedings. It emphasizes that ensuring human rights and freedoms is a key criterion of a democratic and legal state, and examines the guarantees and mechanisms of their protection in the criminal process from a scientific and theoretical perspective. The article explores the historical roots of this institution, the reforms initiated during the independence period, updates in the judicial and legal system, and the process of integrating international legal norms into national legislation. Furthermore, it analyzes the practical implementation of principles such as personal inviolability, the right to a fair trial, and legal defense by an attorney. Based on the research results, proposals and conclusions aimed at further improving the institution of human rights protection are presented.

Keywords: Criminal process, human rights, freedom, protection institution, fair trial, rule of law, lawyer, judicial reform.

1. Kirish

Hozirgi davrda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash masalasi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham eng ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof



etilmoqda. O'zbekiston Respublikasida **demokratik, insonparvar va huquqiy davlat** barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan tub islohotlar tizimida ayniqsa **jinoyat protsessida inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish** masalasi alohida o'rin tutadi. Zero, jinoyat protsessi inson taqdirini hal etuvchi eng mas'uliyatli bosqichlardan biri bo'lib, unda har bir shaxsning **konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari** to'liq kafolatlanishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, ularni ishonchli himoya qilish O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli **sud-huquq islohotlarining markaziy yo'nalishiga** aylangan. **Insonning sha'ni, qadr-qimmat, huquq va erkinliklari** ustuvor qadriyat sifatida e'tirof etilmas ekan, demokratik va huquqiy davlatni to'liq shakllantirish mumkin emas.

So'nggi yillarda mamlakatimizda jinoyat protsessida inson huquqlarini himoya qilish tizimini mustahkamlash borasida **tub o'zgarishlar** amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2018-yil 14-maydagi PQ-3723-sonli "Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori** ushbu sohada yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur qaror asosida sud-huquq tizimining ochiqligini ta'minlash, sudlarning mustaqilligini kuchaytirish, fuqarolarning huquqiy himoyasi va adolatli sudlov kafolatlarini mustahkamlash bo'yicha **amaliy mexanizmlar** joriy etildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar inson huquqlarini himoya qilishning **konstitutsiyaviy asoslarini** sezilarli darajada mustahkamladi. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada **aybsizlik prezumpsiyasi** va **Miranda qoidasi** (ya'ni shaxsni ushlash paytida unga o'z huquqlari, jumladan, jim turish huquqi va advokat yordamidan foydalanish huquqi to'g'risida ogohlantirish majburiyligi) konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo'yildi. **Advokatlik institutining** huquqiy maqomi ham Konstitutsiyada **alohida bob sifatida** mustahkamlandi. Bu esa o'z navbatida advokatlarning mustaqilligini, ularning mijoz manfaatlarini himoya



qilishdagi kafolatlarini va sud tizimidagi rolini yangi bosqichga olib chiqdi. Shuning uchun, bu o'zgarishlar jinoyat protsessida **inson huquqlari ustuvorligini ta'minlash, adolatli sudlov prinsipini** amaliyotga to'liq joriy etish hamda **xalqaro standartlarga muvofiqlikni** kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Mavzuning dolzarbligi, shuningdek, O'zbekistonning **inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarini** bajarish, xususan, BMT Inson huquqlari kengashi, YeXHT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan standartlarni milliy qonunchilikka uyg'unlashtirish jarayonida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu sababli, jinoyat protsessida inson huquq va erkinliklarini himoya qilish institutining **shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini har tomonlama o'rganish**, uning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini tahlil qilish bugungi kunda ilmiy, huquqiy va amaliy jihatdan **nihoyatda dolzarbdir**.

Mazkur tadqiqot aynan shunday dolzarb masalalarni yoritishga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini himoya qilishning huquqiy kafolatlari, xalqaro normalarning milliy qonunchilikdagi aks etishi hamda jinoyat protsessining insonparvarlik tamoyillariga asoslangan yangi huquqiy modelini chuqur o'rganishga xizmat qiladi.

2. Metodlar.

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida **ilmiy-tahliliy yondashuvga** asoslanilgan bo'lib, mavzu qator metodlar orqali har tomonlama o'rganildi. Xususan, **qiyosiy-huquqiy tahlil metodi** yordamida O'zbekiston Respublikasining jinoyat protsessida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga oid me'yoriy-huquqiy asoslari xorijiy davlatlar qonunchilik tajribasi bilan solishtirildi. Shuningdek, **qiyosiy-mantiqiy tahlil metodi** orqali huquqiy institutlarning rivojlanish bosqichlari, ularning o'zaro uzviy bog'liqligi va huquqiy tizimdagi o'rnini aniqlab berildi.

3. Tadqiqot natijalari

3.1. O'zbekiston huquqiy tizimining rivojlanishi va xususiyatlari



O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimi **o'ziga xos tarixiy, huquqiy va madaniy ildizlarga** ega bo'lib, u ko'p qatlamli va murakkab tuzilishga ega tizim sifatida namoyon bo'ladi. Mamlakatimiz huquqiy tizimida **milliy qadriyatlar, diniy-me'yoriy urf-odatlar hamda shariat normalari** bilan bir qatorda, **roman-german huquqiy oilasiga** mansub qonunchilik an'analari ham o'z ifodasini topgan. Bu esa O'zbekiston huquqiy tizimining o'ziga xos **sintez xususiyatini** shakllantiradi; ya'ni ushbu qonunchilik **sharqona huquqiy tafakkur** va **g'arbona huquqiy madaniyat** unsurlarining uyg'unlashgan namunasi hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda **xalqaro huquqiy normalar** va rivojlangan demokratik davlatlarning ilg'or tajribalarini milliy qonunchilikka uyg'unlashtirish jarayoni jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlovchi xalqaro shartnomalarga qo'shilish, shuningdek, milliy qonunlarga xalqaro huquqning asosiy prinsiplari, jumladan, **insonparvarlik, adolat, aybsizlik prezumpsiyasi va huquqiy tenglik** tamoyillarini kiritish mamlakatimiz huquqiy tizimini **sifat jihatidan yangi bosqichga** olib chiqdi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining hozirgi sud-huquq tizimining huquqiy asosi ma'lum darajada **sobiq Ittifoq davridan meros** bo'lib qolgan bo'lsada, u bosqichma-bosqich **milliy va mustaqil huquqiy tizimga** aylantirildi. Sobiq Ittifoq va undan avvalgi Chor Rossiyasi davridagi qonunchilik tizimi asosan **kontinental Yevropa**, xususan Fransiya huquqiy modeliga tayangan holda shakllantirilgan edi. Biroq bu tizim ko'proq **markazlashgan boshqaruv, siyosiy hokimiyatni mustahkamlash va jamiyat ustidan nazoratni** ta'minlashga xizmat qilgan.

Chor Rossiyasi davrida qonunchilik, asosan, burjuaziya manfaatlarini himoya qilish va mustamlaka o'lkalarda fuqarolarni itoatda saqlashga qaratilgan bo'lsa, Sovet Ittifoqi davrida huquqiy siyosat dastlab hokimiyatni mustahkamlash, keyinchalik esa inson huquq va erkinliklarini rasmiy tarzda e'tirof etish yo'nalishida rivojlandi. Shu bilan birga, bu davr qonunchiligida **jazoning og'irligi va muqarrarligi** kabi belgilar ustuvor bo'lgan.



Mustaqillikka erishilgach, mamlakatda huquqiy tizim **tubdan isloh** qilina boshlandi. Dastlabki yillarda sobiq qonunlar asosida tartib va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida ish yuritilgan bo'lsada, inson huquq va erkinliklarini oshkora tarzda kamsituvchi **repressiv normalarning amal qilishi to'xtatildi**. Shu tariqa, bosqichma-bosqich yangi, **zamonaviy va insonparvar qonunlar tizimi** shakllantirila boshladi. Bugungi kunda esa O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi xalqaro standartlarga mos ravishda yangilanib, **inson huquqlari va adolat tamoyillariga asoslangan mustaqil sud-huquq tizimi** shakllanmoqda. Bu jarayon mamlakatimizda **qonun ustuvorligi prinsipi, adolatli sudlov, fuqarolarning huquqiy himoyasi va inson qadr-qimmatini ta'minlashning asosiy kafolati** sifatida e'tirof etilmoqda.

3.2. Advokatura institutining rivojlanish bosqichlari va muammolari

Jinoyat protsessida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish institutining asosiy shakllaridan biri bu **advokatura instituti** hisoblanadi. Advokatlik faoliyati har qanday demokratik jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi advokatura institutining **mustahkam huquqiy asoslarini** belgilab, uning **qonuniylik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish** prinsiplari asosida faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

N.D. Eriashvilli va V.Y. Kositsinlarning fikricha, advokatlar o'zlariga ishonch bildirilgan shaxslarning qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi kasb egalaridir. [1] "Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida advokatlik faoliyati jismoniy va yuridik shaxslarga ularning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, **adolatli sudlovga erishishni ta'minlash** uchun ko'rsatiladigan **malakali yuridik yordam** sifatida e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan to shu kungacha jamiyat hayotining barcha jabhalarida bo'lgani kabi sud-huquq tizimining ajralmas qismi bo'lgan advokatura tizimi ham rivojlanib bordi. Avvalgi ilmiy adabiyotlarda advokaturaning rivojlanish bosqichlari 4 asosiy bosqichga ajratilgan bo'lsa, oxirgi



konstitutsiyaviy islohotlar bu tasnifni qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Yangilangan Konstitutsiyada advokatura instituti ilk bor **konstitutsiyaviy maqomga** ega bo'lib, unga bag'ishlangan maxsus bob kiritildi. Bu yangilik advokatlar faoliyatining mustaqilligini yanada mustahkamladi va ularning huquqiy kafolatlarini kuchaytirdi. Shundan kelib chiqib, hozirga kelib advokatura institutining rivojlanishini quyidagi **5 ta bosqichga** ajratish maqsadga muvofiq:

Jadval

Rivojlanish Bosqichlari	Davri	Asosiy Xususiyatlari
I bosqich	1990 – 1996 yillar	Bu davrda advokatura O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan 1980-yil 12-noyabrda tasdiqlangan "O'zbekiston SSR Advokaturasi to'g'risida"gi Nizom asosida faoliyat yuritgan. Bu bosqich mustaqil advokatura institutini shakllantirish yo'lidagi dastlabki qadamlar bilan belgilandi.
II bosqich	1997 – 2007 yillar	Ushbu davrda advokatura tizimi qator islohotlar bilan boyidi. 1996-yil 27-dekabrda "Advokatura to'g'risida"gi qonun, 1998-yil 25-dekabrda esa uning mantiqiy davomi sifatida "Advokatura faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Bu qonunlarda advokaturaga fuqarolik jamiyatining muhim huquqiy instituti



Rivojlanish Bosqichlari	Davri	Asosiy Xususiyatlari
		sifatida huquqiy ta'rif berilib, tizimning mustaqilligiga alohida e'tibor qaratildi.
III bosqich	2008 – 2016 yillar	Bu davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.05.2008-yildagi PF-3993-son "O'zbekiston Respublikasida Advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan boshlandi. Ushbu farmon advokatura institutini modernizatsiya qilish va sud-huquq tizimining ajralmas qismi sifatida mustahkamlashda muhim rol o'ynadi.
IV bosqich	2017 – 2023 yillar	Bu davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-mayda qabul qilgan "Advokatura institutining samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan belgilanadi. Ushbu farmon advokatlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish va ularning faoliyat samaradorligini oshirish uchun mustahkam poydevor yaratdi.
V bosqich	2023-yildan hozirgi kungacha	Konstitutsiyada advokaturaga alohida bob ajratilishi; institutning konstitutsiyaviy maqomga ega bo'lishi.



Yuqoridagi bosqichlarning tahlili advokatura tizimida hanuzgacha saqlanib qolayotgan **dolzarb muammolarni** ham ko'rsatib beradi. Bugungi kunda O'zbekistonda ro'yxatga olingan advokatlar soni **7 200 nafardan ortiqni** tashkil etadi va so'nggi 10 yil ichida ularning sonida o'sish kuzatilmoqda. Ammo statistikaga ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda har bir advokatga o'rtacha **8 660 nafar fuqaro** to'g'ri keladi; ba'zi hududlarda esa bu ko'rsatkich **12 mingdan 20 mingga** yetadi. Xususan, Surxondaryo viloyatida bitta advokatga 32 ming aholiga xizmat ko'rsatish majburiyati tushadi.

Xalqaro miqyosda solishtirganda, bu raqamlar keskin farq qiladi: Isroilda har 136 kishiga, Turkiyada 665 kishiga, Qozog'istonda esa 3 932 kishiga bitta advokat to'g'ri keladi. Tahlil qilingan 42 davlat ichida O'zbekiston advokatlar soni bo'yicha **40-o'rinni** egallab, past natijani ko'rsatmoqda.

Yosh advokatlar soni ham aholi talablariga javob bera olmayapti. Faoliyat yuritayotgan advokatlarning atigi **62 nafari 30 yoshdan kichik** bo'lib, bu advokatlik faoliyatiga kirishdagi mavjud cheklovlar bilan bog'liq. Xususan, yuridik sohada kamida **ikki yillik tajriba** talab qilinishi va 1 900 dan ortiq savolni o'z ichiga olgan **qiyin test imtihonini** muvaffaqiyatli topshirish zaruriyati yosh kadrlar oqimini cheklamoqda.

Ushbu ma'lumotlar advokatura tizimida **kadrlar yetishmovchiligi** va huquqiy xizmatlar sohasidagi muammolarni yaqqol ko'rsatib turibdi. Shu bois, tizimni takomillashtirish va yosh mutaxassislarni jalb qilish bo'yicha samarali chora-tadbirlar zarurligi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. **Advokatning huquqiy maqomini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlash** nafaqat advokatlar faoliyatining kafolatlarini kuchaytirdi, balki ularning mustaqilligini ta'minlash va aholi uchun huquqiy himoya tizimini yanada ishonchli qilish imkonini bergan muhim qadam bo'ldi.

4. Xulosa

O'zbekiston Respublikasida jinoyat protsessida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan **keng ko'lamli islohotlar**



davlatning demokratik taraqqiyotga sodiqligini yaqqol namoyon etmoqda. Bugungi kunda **inson qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida belgilash**, sud-huquq tizimining xalqaro standartlarga mos ravishda yangilanib borishi hamda fuqarolarning **adolatli sudlovga bo'lgan huquqlarini kafolatlash** davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Tadqiqot davomida aniqlandiki, so'nggi yillarda jinoyat protsessida shaxs huquqlarini himoya qilishning **konstitutsiyaviy kafolatlari mustahkamlanib**, aybsizlik prezumpsiyasi, Miranda qoidasi, sudlarning mustaqilligi hamda advokatura institutining huquqiy maqomi tubdan yangilandi. Xususan, advokatlik faoliyatining **Konstitutsiyada alohida bob sifatida mustahkamlanishi** nafaqat fuqarolarning adolatli sudlovga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlaydi, balki davlat va jamiyat hayotida advokatura institutining o'rnini **butunlay yangi bosqichga** ko'tardi.

Shu bilan birga, advokatura tizimida mavjud **kadrlar tanqisligi**, yosh mutaxassislar yetishmovchiligi, aholiga ko'rsatiladigan huquqiy xizmatlar sifati va qulayligining yetarli emasligi kabi **dolzarb muammolar** tizimni chuqur isloh qilish zarurligini ko'rsatadi. Advokatlarning soni bo'yicha xalqaro ko'rsatkichlar bilan solishtirilganda, O'zbekistonning orqada qolayotgani ushbu sohaga yanada **e'tibor qaratish** lozimligini ta'kidlaydi.

Shu jihatdan, advokatning huquqiy maqomini konstitutsiyaviy darajada belgilash, advokatura faoliyatining mustaqilligi va daxlsizligini ta'minlash, **yosh kadrlar uchun adolatli va qulay kirish mexanizmlarini yaratish**, mintaqalar bo'yicha advokatlar taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etish kabi islohotlar jinoyat protsessida inson huquqlarining **real kafolatini yanada kuchaytirishi** shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi sud-huquq tizimidagi bugungi islohotlar **inson manfaatlariga, adolat tamoyiliga, qonun ustuvorligiga tayanayotgan yangi huquqiy modelni** shakllantirmoqda. Jinoyat protsessida inson huquqlarini himoya qilish institutining izchil rivojlanishi **demokratik jamiyat**



qurishning eng muhim tayanchi bo'lib, kelajakda mamlakatimizda yuqori huquqiy madaniyat, shaffof sudlov va samarali himoya tizimi qaror topishiga mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil www.lex.uz
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 06.11.2021 yil. www.yuz..uz
3. "O'zbekiston SSR Advokaturasi to'g'risida"gi Nizom. 12.11.1980 yil
4. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonuni. 27.12.1996
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Advokatura institutini yanada isloh qilish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 01.05.2008 yil
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Advokatura institutining samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 12.05.2018-yil
7. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi. 28.01.2022-yil 8. "Science and innovation" international scientific journal 2022
8. Эриашвили Н.Д., Косицкий В.Ю. Процессуальный статус адвоката в уголовном судопроизводстве // Вестник Московского университета МВД России. – № 2 / 2014. – С. 62
9. Ubaydullayev D.A. 2022. Advokatlik faoliyati kafolatlarining huquqiy asoslari. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences 2 (4): 105-9. <https://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/324>.

Internet manbalari

1. www.lex.uz
2. www.sud.uz
3. www.paruz.uz
4. www.uz.undp.org
5. www.norma.uz 6. www.kun.uz